

GLOBALLASHUVNING NAZARIY ASOSLARI

*Bozorov Abdurauf*

*Abdullayev Sherdor*

*JDPU maktab menejmenti yo`nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada globallashuv, uning salbiy va ijobiy jihatlari, ahamiyati, tarafdorlari va globallashuvga qarshilar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, globalizatsiya, globalist, antiglobalist, global, intellektual, ma'naviyat, madaniyat, qadriyat, integrallashuv.

**Аннотация:** В данной статье говорится о глобализации, ее отрицательных и положительных сторонах, значении, сторонниках и противниках глобализации.

**ЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** Глобализация, глобализация, глобалист, антиглобалист, глобальный, интеллектуальный, духовность, культура, ценность, интеграция.

**Abstract:** This article talks about globalization, its negative and positive aspects, importance, supporters and opponents of globalization.

**Keywords:** Globalization, globalization, globalist, anti-globalist, global, intellectual, spirituality, culture, value, integration.

Globallashuv – insonning ongi shuuri, tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon, ta'bir joiz bo'lsa, insoniyat boshidagi yana bir sinov. Qadimda odamzot ezgulikka intilib, bog'-rog'lar, shaharlar, beqiyos me'moriy obidalarni bunyod etgani, yovuzlik yo'lini Iskandar devori singari vositalar bilan to'sgani ma'lum. Tarixiy taraqqiyot davomida yaxlit jahon turli iqlim va mintaqalarga, qit'a va davlatlarga ajraldi. Lekin XXI asrga kelib chegara va hududlarni, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib borayotgan globallashuv jarayoni dunyo ahlini o'yga toldirmoqda, bu haqda yer yuzining turli burchaklarida rang-barang fikrlar bildirilmoqda. Shu ma'noda aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobi avvalo O'zbekiston xalqiga mo'ljallangan bo'lsa-da, butun insoniyat taqdiriga kuyunib yozilgani bilan alohida ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda globallashuv jarayoni yangi-yangi hudud va mintaqalarni, barcha faoliyat sohalarni o'z domiga tortib bormoqda. Shunday bir vaziyatda bu hodisani ko'proq iqtisodiy jarayon sifatida talqin qilinib, uning siyosiy jihatlari haqida sukut saqlashni afzal ko'rayotganlarga javoban muallif bunday yozadi: "Globallashuv jarayonining... o'ziga xos jihati shundan iboratki, hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotgani sog'lom fikrlaydigan har qanday odam albatta kuzatishi muqarrar". Birgina axborot sohasidagi globallashuv jarayonini oladigan bo'lsak, uning ta'siri jahonda yetakchilik qilishi uchun kechayotgan shiddatli kurashda namoyon bo'lmoqda. Chunki axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasi davlatning geosiyosiy ta'sirini belgilovchi omillardan biriga aylanmoqda. Shuning uchun axborot texnologiyalari yuksalgan davlatlarda bu sohadagi ustunlikdan siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborot va madaniy tajovuzlarni amalga oshirish yo'lida foydalanib qolish vasvasasi yo'q, deb aytolmaymiz.

Bugungi kunda ilmiy adabiyotlarda globallashuvning turli jihatlari farqlanadi.

Eng avvalo, aholi sonining tez o'sib borishi sharoitida oziq-ovqat, ichimlik suvi, tabiiy mahsulotlarga talabning oshishi va shu kabi ehtiyojlarni qondirish, tabiatning zo'riqishi bilan bog'liq masalalarni yaxlit holda ifodalovchi demografik-ekalogik muammolar mavjudligini alohida qayd qilish lozim. Globallashuv o'z mohiyati jihatidan koinotimizdagi har bir inson, har bir davlat, qolaversa jahon hamjamiyatini befarq qoldirmaydigan va uni faqatgina hamkorlikdagi hal etilishi lozim bo'lgan muammolarni o'z tarkibiga oladi.

Globallashuv sharoitida tashqi aloqalar, xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanib, har bir shaxsning ma'naviyati va intellektual salohiyatiga yangicha talablar qo'ymoqda. O'z navbatida, O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'laqonli a'zosi va uning ajralmas qismi hisoblanadi. SHuning uchun ham bugungi kunda mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli, yuqori bilimli va xalqaro talablarga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda. Mamlakatimizda bunday mutaxassislarga bo'lgan talab kelajakda ham oshib boradi. SHu bois yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash, ularni xalqaro mezonlar asosida tayyorlash ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda yurtimizda yosh va sifatli kadrlarni yetishtirib chiqarish uchun bir qator ishlar olib borilmoqda bunga misol qilib ixtisoslashtirilgan maktab va bog'chalarni ochishga keng imkoniyatlar berilmoqda. Bular orqali insonlarni yoshliklarida turli tuman tillarni organishga imkon beradi. Insonlarni yoshliklaridan boshlab turli tuman tillarni o'rganishi orqali yangi ma'lumotlarni o'zlashtirib butun jahonda ro'y beryotgan vaziyatlar bilan to'g'ridan to'g'ri o'zlari ma'lumot olishadi. Bu esa hozirgi yoshlarimizni bir qancha narorat qilishimizda muammolar keltirib chiqarishi mumkin.

Globallashuv tushunchasi uning ma'no mazmuni va insoniyat taraqqiyotdagi o'rni masalasiga qiziqish ortib bormoqda. Globallashuv jarayoni yer yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog'lab qo'ymoqdaki buni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki hozirdanoq dunyoning biron bir hududi uning ta'siridan hali qolayotgani yo'q. O'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lgan globallashuv atamasi jahon mamlakatlari iqtisodiy va ma'naviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Globallashuv shunday jarayonni undan chetga turaman degan mamlakatlar uning ta'siriga ko'proq uchrab qolishi mumkin. Bunday g'ayri ixtiyoriy ta'sir esa ko'pincha salbiy oqibatlariga olib kelmoqda. Mustaqillik davrida mamlakatlarimiz olimlari o'tkazgan va o'tkazayotgan tadqiqotlar tahlili bu sohadagi ishlar endigina boshlanayotganidan darak beradi.

Globallashuvga berilgan ta'riflar juda ko'p lekin uning xususiyatlarini to'laroq qamrab olagani, bizningcha fransuz tadqiqotchisi B. Bandi bergan ta'rifdir. Unga globallashuv jarayonining uch o'lchovli ekaniga urg'u beriladi.

1. Globallashuv - muttasil davom etadigan tarixiy jarayon.
2. Globallashuv - jahonning gomogollashuvi va universallashuvi jarayoni
3. Globallashuv - milliy chegaralarning yuvilib ketish jarayoni.

Bu ta'rifga keltirilgan globallashuv o'lchovlarining har o'lchashga nisbatan ham muayyan e'tirozlar bildirishi mumkin. Lekin jahonda yuz berayotgan jarayonlarni kuzatsak ularning barcha o'lchovi ham unda mavjud ekanini ko'ramiz. Globallashuv tarafdorlari globalistlar deb ataladi. Ular orasida davlat arboblari siyosatchilar, sanoatchilar va biznesmenlar ko'proq uchraydi. B.Bandi yuqorida keltirib o'tgan ta'rifi juda ham to'g'ri deya hisoblasak mubolig'a emas. Chunki har qanday millat globallashuv jarayonida o'zini ko'rib his qilsa demak bu millat asta sekinlik bilan o'zining milliy urf odatlarini va ananalarini esdan chiqarib boradi. Bu esa butin bir millatning va jamiyatning universallashuviga olib keladi. Globallashuvning asosiy ko'rinishlari, tendentsiyalari va oqibatlari tevaragidagi munozaralar so'ngi yillarda nafaqat jonlandi, balki qizg'in tus olmoqda. Bugun nafaqat bir davlatda, balki butun dunyoda bir-biriga qarshi kurash olib borayotgan "globalistlar" va "anti globalistlar"ga ajraldi. Ayrim olimlar globalizatsiyani farovon turmush, tanlash huquqi va yanada ko'prok erkinlik, ya'ni ko'chib yurish, to'liq axborot olish, ko'proq xaq to'lanadigan joyda ishlash, eng yaxshi universitetlarda ta'lim olish erkinligi bilan bog'lasalar, boshqalar uchun esa globallashuv insoniyatga tahdid soluvchi, global isish, atrof muhitning ifloslanishi, nazoratsiz migratsiya omillarining vujudga kelishi, ishsizlarning ko'payishi, an'anaviy qadriyatlarga putur etishi kabi muammolarni tug'diruvchi jarayon sifatida baholamoqdalar. Bizning nazarimizda, globallashuv, eng avvalo, taraqqiyot sur'atlarining tezlashuvi orqali butun insoniyat yalpi yer shari taqdirini birlashtirayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy, madaniy-ruhiy hodisa sifatida o'zini namoyon etayotgan bir paytda,

uning yaxlit mohiyatining ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etishni taqozo etmoqda. Ayni shu nuqtai-nazardan qaraganda, globallashuv odamlar orasida ma'lum bir universal va umumhajmli aloqani o'rnatishni nazarda tutadi. Shu sababli globallashuvning insoniyat hayotiga ijobiy ham salbiy ham ta'sir etishi mumkin. Chunki globallashuv orqali odamlar butun dunyoda nimalar bo'layotgani bilan tanishib o'zlari uchun kerakli hulosalar va qarashlarni olishadi. Lekin manashu globallashuv natijasida odamlarning o'zligi va milliy qadriyatlari yo'qolib ketmoqda desak mubolig'a bo'lmaydi. Chunki odamlar globallashuv sharoitida o'zlari uchun qulay bo'lgan narsalarni to'g'ri deb hisoblashmoqda. Shu sababli ham globallashuvni hamma o'zining qadriyatlariga mos keladigan jihatlarni olsa maqsadga muvofiq bo'lar edi deb hisoblaymiz. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarida ko'rish mumkin. Ayniqsa, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi integratsiya va hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investisiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko'plab yangi ish o'rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg'unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi, ekalogik ofatlar paytida o'zaro yordam ko'rsatish imkoniyatlarining ortishi – tabiiyki, bularning barchasiga globallashuv tufayli erishilmoqda.

Yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, globallashuv jarayonining ta'sir doirasi va qudrati tobora yuksalib bormoqda. Ammo bu holatda har bir davlat o'z yoshlari ongi va shuurini musaffo saqlashga, turli yot g'oyalardan himoya qilishga majbur. Jumladan, O'zbekiston misolida aytadigan bo'lsak, bu murakkab vaziyatda turli vositalar bilan zulm va behayolikni targ'ib etuvchi omillardan yoshlarni asrab-avaylash borasida juda ulkan ishlar amalga oshirildi va bu jarayon davom etmoqda. Binobarin, mazkur masala xuddi shu jihati bilan ham dolzarb hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (references):**

1. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy xususiyatlari, falsafiy va tarixiy ildizlari. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
2. G'oya va mafkura. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
3. Milliy istiqloq g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
4. Markaziy Osiyo: G'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdid. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
5. Milliy istiqloq g'oyasining amal qilish tamoyillari. Toshkent 2001 y.
6. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
7. Milliy g'oya inson va zamon. mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
8. Milliy istiqloq g'oyasi: nazariya va amaliyot. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
9. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent 2001 y.
10. Insoniyat tarixi g'oya va mafkuralar tarixidir. Mas'ul muharrir Q.Nazarov. Toshkent — 2001 y.
11. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent; Ma'naviyat, 2008.